



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM

OPEN  ACCESS

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSİYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdulkarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich	



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Qaraev Anvar Botirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: anvarkaraev629@gmail.com

ORCID: 0009-0007-1453-6665

Annotatsiya. To'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlari zarur. Ushbu ilmiy ishda to'qimachilik korxonalarida strategik menejment tizimini shakllantirish va samarali joriy etish masalalari o'rganiladi. Tahlillar asosida korxonalarning ichki va tashqi muhitda raqobatbardoshligini ta'minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishning amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, strategik rejalashtirish, monitoring va baholash bosqichlarining samarali tashkil etilishi korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ular asosida milliy sharoitga mos strategik menejment modeli ishlab chiqiladi. Mazkur ish natijalari to'qimachilik sohasidagi menejerlar, tadqiqotchilar hamda siyosat yurituvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: strategik menejment, to'qimachilik sanoati, barqaror rivojlanish, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, uzoq muddatli strategiya, iqtisodiy barqarorlik, strategik rejalashtirish, monitoring, xalqaro tajriba.

Abstract. The textile industry is one of the key sectors of the national economy, and its sustainable development requires the implementation of modern management approaches. This research focuses on the development and effective implementation of a strategic management system within textile enterprises. The study highlights practical aspects of ensuring competitiveness in both internal and external environments, the integration of innovative approaches, and the formulation of long-term development strategies. It also emphasizes the importance of organizing strategic planning, monitoring, and evaluation stages effectively to enhance the economic stability of enterprises. The research analyzes advanced international experiences and proposes a strategic management model adapted to national conditions. The findings of this study offer theoretical and practical value for managers in the textile sector, researchers, and policymakers.

Keywords: strategic management, textile industry, sustainable development, competitiveness, innovation, long-term strategy, economic stability, strategic planning, monitoring, international experience.

Аннотация. Текстильная промышленность является одной из важнейших отраслей экономики страны, и для её устойчивого развития необходимы современные управленческие подходы. В данном научном исследовании рассматриваются вопросы формирования и эффективного внедрения системы стратегического менеджмента на текстильных предприятиях. На основе анализа освещаются практические аспекты обеспечения конкурентоспособности предприятий во внутренней и внешней среде, внедрения инновационных подходов и разработки долгосрочных стратегий развития. Также обоснована роль эффективной организации этапов стратегического планирования, мониторинга и оценки в повышении экономической устойчивости предприятия. В ходе исследования анализируется передовой зарубежный опыт, на основе которого разрабатывается модель стратегического менеджмента, адаптированная к национальным условиям. Полученные результаты представляют теоретическую и практическую ценность для менеджеров в текстильной отрасли, исследователей и политиков.

Ключевые слова: стратегический менеджмент, текстильная промышленность, устойчивое развитие, конкурентоспособность, инновации, долгосрочная стратегия, экономическая стабильность, стратегическое планирование, мониторинг, международный опыт.



KIRISH

Bugungi globallashtirish va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar davrida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlash strategik menejment yondashuvlari asosida shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutuvchi tarmoq bo'lib, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zamonaviy boshqaruv tizimlari, ayniqsa, strategik menejment tizimining joriy etilishi va takomillashtirilishi dolzarb masala hisoblanadi. Strategik menejment tizimi korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanish yo'llarini aniqlash hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham sanoatni raqobatbardosh qilish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish alohida yo'nalish sifatida belgilangan [2]. To'qimachilik tarmog'i esa ushbu strategik yo'nalishlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, valyuta tushumini ko'paytirish kabi ustuvor maqsadlarga xizmat qiladi [3]. Shu boisdan, tarmoqning uzoq muddatli istiqbolini belgilashda strategik rejalashtirish, tashqi muhit tahlili (SWOT, PEST) va muqobil rivojlanish senariylarini ishlab chiqish orqali samarali strategik menejment tizimini shakllantirish zarurati tug'ilmoqda. To'qimachilik korxonalarining aksariyatida hali ham qisqa muddatli operatsion rejalashtirishga urg'u berilmoqda, bu esa bozorning dinamik va noturg'un sharoitida resurslardan foydalanish samarasini pasaytiradi. Strategik menejment tizimi esa korxona boshqaruvini tizimli asosda takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli faoliyat yuritishga yo'naltiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda, strategik fikrlaydigan menejerlar, bozorni oldindan tahlil qilish, mahsulot differentsiatsiyasini yo'lga qo'yish, manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalar o'rnatish kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega [4]. Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik korxonalari misolida strategik menejment tizimini ishlab chiqishning nazariy asoslari, tarmoqning mavjud holati, raqobat muhitining xususiyatlari hamda barqaror rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tahlil asosida kompleks strategik boshqaruv modelini ishlab chiqish taklif qilinadi. Mazkur yondashuv nafaqat alohida korxonalar darajasida, balki butun tarmoq miqyosida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada ilgari surilgan tavsiyalar to'qimachilik sanoatida innovatsion strategiyalarni joriy etishga, xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga, shuningdek, korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Igor Ansoff – Strategik rejalashtirish va moslashuvchanlik nazariyasi. Igor Ansoff "Strategic Management" konsepsiyasining otasi hisoblanadi. Uning mashhur Ansoff Matrix modeli mahsulot va bozor asosida kompaniyaning strategik yo'nalishini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu model to'qimachilik sohasida yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, mavjud bozorlarda kengayish va diversifikatsiya qilish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishda qo'llaniladi [6].

Henry Mintzberg – Strategik qarorlar turkumlanishi. Mintzberg strategik menejmentga ko'plab yondashuvlar mavjudligini ta'kidlab, ularni "10 Schools of Strategy" deb nomlagan [7]. To'qimachilik korxonalariga bu yondashuvlar, xususan, Design School, Positioning School va Learning School orqali rejalashtirish, tajriba o'ttirish va tashqi bozorga moslashishda yordam beradi.

Michael Porter – Raqobat strategiyasi va tarmoq tahlili. Porterning Five Forces va Value Chain Analysis modellari to'qimachilik sanoatida tarmoq ishtirokchilarining raqobat kuchlarini o'rganishda ishlatiladi [8]. Masalan, xomashyo ta'minotchilari, tayyor mahsulot xaridorlari va yangi raqiblar bosimini baholash uchun.

Kaplan & Norton – BSC (Balanced Scorecard) tizimi. Robert Kaplan va David Norton ishlab chiqqan Balanced Scorecard (BSC) [9] modeli to'qimachilik korxonalarida samaradorlikni moliyaviy va nomoliyaviy mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, resurslarni taqsimlash, sifatni nazorat qilish va innovatsiyalarni monitoring qilishda qo'llaniladi.

Mahalliy mualliflar: Jabborov A., Karimov B. – O'zbekiston kontekstida menejment nazariyalari. Jabborov A. va Karimov B. kabi mahalliy olimlar o'z ishlarida strategik rejalashtirish va menejment yondashuvlarining milliy korxonalar faoliyatiga moslashuvini tahlil qilgan [11]. Ularning izlanishlarida, xususan, to'qimachilik tarmog'i uchun SWOT va BSC yondashuvlarining milliy variantlari ishlab chiqilgan. Bu asarlar nazariy bilimlarni amaliyotga uyg'unlashtirishda muhimdir.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, strategik menejment nazariyalari to'qimachilik sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali moslashtirilishi mumkin. Bu tahlillar asosida korxonalar o'z strategiyalarini milliy xususiyatlarga mos holda moslashtirishga erishmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda to'qimachilik korxonalarining barqaror rivojlanishida strategik menejment tizimini ishlab chiqish bo'yicha kompleks metodologiya qo'llanildi. Birinchidan, tizimli tahlil usuli orqali strategik menejmentning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari (SWOT, BSC, Ansoff, Porter, Mintzberg) o'rganildi. Ikkinchidan, solishtirma tahlil asosida mahalliy va xalqaro amaliyotdagi strategik menejment modellarining to'qimachilik sohasidagi qo'llanilishi tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda esa O'zbekistonning yetakchi to'qimachilik korxonalari o'ld statistik ma'lumotlar, yillik hisobotlar, strategik rejalar o'rganilib, empirik tahlil amalga oshirildi. Shu asosda strategik rejalashtirishda eng samarali vositalarni aniqlashga va tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan diagnostik yondashuv tanlandi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, hujjatli monitoring va ekspert intervyulari asosiy axborot manbalari bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolaning asosiy qismi hisoblanib, mavzuga oid ma'lumotlar tadqiq etiladi, statistik va boshqa ma'lumotlar tahlili amalga oshiriladi hamda tahlil natijasida mavjud muammolar aniqlanadi. Jadval va diagrammalardan foydalangan holda ma'lumotlar tahlil etiladi. Respublikamiz to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida quyidagi ilmiy-amaliy natijalar taklif qilingan. Respublikamiz to'qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar sifatida korxonalar moliyaviy holatining barqaror emasligiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar aniqlangan. Tarmoq korxonalarining moliyaviy natijalarini xomashyo bahosi o'zgarishlariga yuqori darajada bog'liqligi omili, birinchi navbatda, mahsulot tannarxi tarkibida xomashyoning ulushi 80% dan ortiqni tashkil etadigan yigiruv-to'quv korxonalarining moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faollikni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari o'rganildi hamda sohaning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini joriy etish lozimligi asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida to'qimachilik mahsulotlari eksporti uchun undiriladigan yig'im mablag'larining bir qismini korxonalar tomonidan ishlab chiqarish jarayoni uchun xarid qilingan zamonaviy texnologik uskunalar qiymatini qisman qoplash maqsadida subsidiyalash mexanizmiga yo'naltirishning iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, eksportdan shakllanadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosli hisoblanadi.

Taklif etilgan subsidiyalash mexanizmi korxonalarning investitsiya xarajatlarini qisqartirish, asosiy kapitalning yangilanish koeffitsiyentini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi isbotlandi. Natijada korxonalarning likvidlik, moliyaviy mustaqillik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari yaxshilanishi, kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojning qisqarishi hamda moliyaviy xavflarning pasayishi ta'minlanadi.

Shuningdek, eksport yig'imlarini investitsion subsidiyalarga transformatsiya qilish mexanizmining joriy etilishi to'qimachilik sanoatida innovatsion faollikni kuchaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng tatbiq etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, eksport geografiasini kengaytirish, tashqi bozorlarda raqobat ustunliklarini shakllantirish va mamlakat eksport tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar to'qimachilik sanoati korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, eksportni rag'batlantirish siyosatining samaradorligini oshirish hamda sohada investitsion faollikni kengaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, to'qimachilik mahsulotlari eksporti uchun undiriladigan yig'im mablag'larini texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan subsidiyalash mexanizmiga transformatsiya qilish to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion jozibadorligini oshirish va tarmoqning barqaror iqtisodiy o'sishini rag'batlantiruvchi samarali moliyaviy vosita sifatida baholandi.

To'qimachilik sanoati korxonalari va klasterlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan aylanma mablag'lar hajmini yetarli darajada shakllantirish ekanligini ko'rsatdi. Amalda korxonalarda xomashyo zaxiralarini shakllantirish, yarimtayyor mahsulotlarni qayta ishlash va eksport shartnomalarini o'z vaqtida bajarish jarayonlarida aylanma mablag'lar yetishmovchiligi kuzatilishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, to'qimachilik ishlab chiqarish korxonalari va klasterlarining qisqa muddatli investitsion loyihalarini moliyalashtirish hamda aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida tijorat banklari tomonidan revolver kreditlar ajratish amaliyotini keng joriy etishning maqsadga muvofiqligi asoslandi. Taklif etilayotgan mexanizmning ilmiy yangiligi shundaki, u to'qimachilik tarmog'ida mavsumiy ishlab chiqarish xususiyatlari, eksport tushumlarining davriyligi va mablag'lar aylanish siklini hisobga olgan holda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Revolver kreditlar mexanizmi orqali korxonalar kredit limiti doirasida mablag'lardan takroran foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu kredit resurslariga kirish imkoniyatini oshiradi, moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi hamda aylanma kapitalning aylanish tezligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarning to'lov qobiliyati, likvidlik darajasi va moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Shuningdek, revolver kreditlash amaliyotining joriy etilishi to'qimachilik klasterlarida xomashyo yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasidagi moliyaviy uzilishlarni bartaraf etish, eksport shartnomalarini o'z vaqtida moliyalashtirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish imkonini beradi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, eksport salohiyatining kengayishiga hamda qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, to'qimachilik sanoati korxonalari va klasterlarining qisqa muddatli investitsion ehtiyojlari hamda aylanma mablag'larini moliyalashtirish uchun revolver kreditlardan foydalanish mexanizmi tarmoq subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirishning muhim moliyaviy vositasi sifatida baholandi.

To'qimachilik korxonasi salohiyati — bu doimiy harakatda bo'ladigan, o'zgaruvchan, zamonaviy talablarga moslashuvchan tizimdir. Bu tizimni rivojlantirish korxonaning strategik maqsadlariga erishishi uchun zamin yaratadi. Shunday ekan, salohiyat va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni strategik boshqaruv darajasida chuqur tahlil qilish va rejalashtirish zarur bo'ladi.

1-jadval¹

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonidagi mavjud ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich nomi	Tavsifi
Texnologik quvvat	Mavjud uskunalar va ishlab chiqarish liniyalarining maksimal ishlash sig'imi.
Ishlab chiqarish liniyalarining bandlik darajasi	Real foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining umumiy quvvatga nisbati (%).
Ishlab chiqarish hajmi	Yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmi (so'mda yoki tonnada ifodalanadi).
Mehnat unumdorligi	Har bir ishchi hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati.

Ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda yangi avlod uskunalarini joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yo'qotishlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni standartlashtirish muhim rol o'ynaydi. Bu jihatlarda barqaror ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, korxonaning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi.

2-jadval

To'qimachilik korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonida asosiy indikatorlari²

Ko'rsatkich nomi	Mazmuni va ahamiyati
Eksport hajmi	Korxonaning mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish darajasi. Barqaror valyuta tushumlari va o'sish manbai hisoblanadi.
Mahsulotning bozor ulushi	Mahsulot yoki xizmatning ichki yoki xalqaro bozordagi umumiy ulushi. Bozor pozitsiyasini bildiradi.
Raqobatbardoshlik darajasi	Narx, sifat, dizayn, yetkazib berish tezligi, xizmat ko'rsatish sifati orqali belgilanadi. Ustunlikni ko'rsatadi.


Mahalliy marketing bo'yicha mutaxassislar fikriga ko'ra, O'zbekistondagi to'qimachilik korxonalarining aksariyatida ichki bozorda 30–35% ulush mavjud bo'lsa-da, eksport bozorlariga chiqish salohiyati hali to'liq ochilmagan. Shu sababli bozor salohiyatini mustahkamlash orqali iqtisodiy salohiyatning umumiy darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin.

1 Iqtisodiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2 Iqtisodiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Avvalo, mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha deskriptiv statistika, ya'ni tavsiflovchi tahlil amalga oshiriladi. Bu usul yordamida indikatorlarning o'rtacha qiymati, variatsiya koeffitsiyenti, dispersiya va og'ish darajalari aniqlanadi. Masalan, 2020–2024-yillar mobaynida O'zbekistonning 20 dan ortiq to'qimachilik korxonalari o'rtasida rentabellik ko'rsatkichlarining o'rtacha yillik qiymati $R = 15,2\%$ ni tashkil qilgan bo'lsa, standart og'ish $\sigma = 4,3\%$ atrofida qayd etilgan. Bu holat korxonalar faoliyatida barqarorlik darajalari o'rtasida farq mavjudligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston qariyb 2,5 mlrd dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilgan (2024)³

1-rasmda mamlakatimizda 2024-yilda qariyb 2,5 mlrd dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinganligi, ya'ni ip-kalava eksporti hajmi 1,2 mlrd dollarni, tayyor to'qimachilik mahsulotlari esa 1,1 mlrd dollarga yetkazilgani ko'rsatilgan. Bu esa tarmoqni yanada rivojlantirish katta imkoniyatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, bozordagi dinamikani tahlil qilishda talab o'zgaruvchanligi, mijozlar segmentatsiyasi, eksport bozorlaridagi siyosiy-iqtisodiy xatarlar kabi omillar ham hisobga olinadi. Bu omillar korxonaning bozor strategiyasini qayta ko'rib chiqish va moslashuvchan qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Umumiy iqtisodiy xulosa shuki, o'tkazilgan tahlillar natijasi mahsulot sotishdan tushum kamayganini, tannarx qisqarganini, operatsion xarajatlar oshganini, moliyaviy daromadlar kamayganini, shunga qaramay, korxona sof foydani oshirishga erishganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda sanoat tarmoqlari ichida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu tarmoqda ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport salohiyatining kengayishi, klasterlashuv jarayonlarining chuqurlashuvi to'g'ridan-to'g'ri barqaror strategik boshqaruv tizimlarining mavjudligiga bog'liq. Ushbu tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlil va empirik kuzatuvlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Strategik menejment tizimi — barqaror rivojlanishning asosi. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, strategik menejmentning zamonaviy yondashuvlarini qo'llash korxonalarining uzoq muddatli rejalashtirish, tashqi omillarga moslashish va ichki resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

2. To'qimachilik sanoati uchun moslashtirilgan yondashuv zarur. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro menejment nazariyalari to'g'ridan-to'g'ri o'zbek to'qimachilik korxonalariga tatbiq etilmaydi. Ular mahalliy sharoit — xomashyo bazasi, ishchi kuchi sifati, davlat siyosati, bozor talabi, transport-logistika imkoniyatlari — bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi zarur.

3. Ekologik va raqamli transformatsiya strategik rejalashtirishda e'tiborga olinishi kerak. Strategik menejment tizimiga ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari — chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, energiyani tejash — va raqamli texnologiyalar — ERP, CRM, SCM tizimlari, raqamli marketing — integratsiyasi korxonaning zamonaviy raqobat muhitida o'z pozitsiyasini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

4. O'zbekistonda ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatiga ega. Tahlil etilgan misollar — Uztex, BCT, Indorama — shuni ko'rsatadiki, to'g'ri shakllantirilgan strategik reja korxonalarga

3 Manba: O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi korxonalari ma'lumotlari asosda olingan.



xalqaro bozorlarda samarali raqobatlashish, sifat standartlariga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlarga investitsiya kiritish imkonini bermoqda.

5. Xodimlar salohiyatini rivojlantirish va menejerlarning strategik fikrlash qobiliyatini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Strategik boshqaruv tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi bevosita inson kapitali bilan bog'liq.

Bu esa doimiy o'qitish, sertifikatlash va strategik qaror qabul qilish bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. To'qimachilik korxonalarida strategik menejment bo'linmalarini tashkil etish va ularga maxsus vakolatlar berish lozim. Bu bo'linmalar strategik tahlil, tashqi muhit monitoringi, ichki resurslarni baholash va yillik rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanishi kerak.

2. Menejerlar uchun strategik boshqaruv bo'yicha malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Universitetlar, ilmiy markazlar va biznes inkubatorlar hamkorligida qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilishi kerak.

3. Balanced Scorecard tizimini tatbiq etish orqali korxona samaradorligini moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholash tizimi yo'lga qo'yilishi lozim. Bu tizim mijozlar ehtiyojini qondirish, ichki jarayonlar samaradorligi, innovatsion salohiyat va xodimlarni rivojlantirish darajasini kuzatish imkonini beradi.

4. SWOT va PEST tahlillarini muntazam amalga oshirib borish orqali tashqi muhit o'zgarishlariga mos strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu tahlillar asosida xatarlar va imkoniyatlarga tezkor javob berish mexanizmlari yaratiladi.

5. Raqamli texnologiyalarni strategik boshqaruv jarayoniga integratsiya qilish kerak. Masalan, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirini boshqarish uchun ERP tizimlari, mijozlar bilan aloqalar uchun CRM platformalari, raqamli marketing vositalari joriy etilishi zarur.

6. Ekologik menejment strategiyalarini ishlab chiqish va ularni strategik rejalar bilan bog'lash tavsiya etiladi. Bu, ayniqsa, xalqaro ekostandardlarga muvofiq sertifikatlar olishni ko'zlagan eksportchi korxonalar uchun dolzarbdir.

7. Davlat tomonidan strategik boshqaruv tizimini joriy etayotgan korxonalarga soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar ko'rinishida rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur.

Mazkur chora korxonalarda strategik boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga hamda tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barney J.B., Hesterly W.S. *Strategic Management and Competitive Advantage: Concepts and Cases*. 5th ed. — Boston: Pearson Education, 2015.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

Uktamjonova Z.A. Improvement of the Strategic Management Mechanism in Textile Enterprises // *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi*. — 2024. — Vol. 4, No. 09. — B. 211–216.

Grant R.M. *Contemporary Strategy Analysis: Text and Cases Edition*. 10th ed. — Hoboken: Wiley, 2019.

Wheelen T.L., Hunger J.D., Hoffman A.N., Bamford C.E. *Strategic Management and Business Policy: Globalization, Innovation and Sustainability*. 15th ed. — Boston: Pearson, 2018.

Ansoff H.I. *Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion*. — New York: McGraw-Hill, 1965.

Mintzberg H., Ahlstrand B., Lampel J. *Strategy Safari: A Guided Tour Through the Wilds of Strategic Management*. — New York: Free Press, 2005.

Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 2008.

Kaplan R.S., Norton D.P. *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. — Boston: Harvard Business School Press, 1996.

Gürel E., Tat M. SWOT Analysis: A Theoretical Review // *The Journal of International Social Research*. — 2017. — Vol. 10, No. 51. — P. 994–1006.

Jabborov A., Karimov B. *Strategik menejment asoslari*. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. URL: <https://library.uzedu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>